

## **YOSHLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI**

*Xudaybergenova Gulmira Komiljon qizi  
Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqa'la tumani Bo'ston shahri 61-umumiy  
o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

**ANNOTATSIYA :** Jamiyat hayotining turli sohalarida inson omili ustun hisoblanadi, ayniqsa, unda voyaga yetmaganlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning ilmiy, ijodiy, intellektual salohiyatini yuksaltirishga asosiy vazifalardan biri sifatida qaraladi. Shu bilan birgalikda, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar sonining ortishi, o'smirlar o'rtasida deviant xulqning ommalashuvi kabi holatlar huquqbazarlik profilaktikasi masalasida jamiyatning barcha institutlari tizim sifatida o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishini taqozo etmoqda. Ushbu tizimning o'ziga xos subyekti sifatida umumta 'lim maktablari jamiyatdagi asosiy ta'lim-tarbiya manbai bo'lib qolmay, huquqbazarlik profilaktikasi vositasi ham sanaladi. Maqolada voyaga yetmaganlar huquqbazarligi profilaktikasi borasida umumta 'lim maktablarining o'rni va ahamiyati o'rganib tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** huquqbazarlik, g'ayriijtimoiy hatti-harakatlar, deviant xulqatvor, yakka tartibdagi profilaktika, maxsus profilaktika, nazoratsiz bola, bola reabilitatsiyasi, ijtimoiy pedagog.

### **KIRISH**

Davlatimiz yoshlar masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bugungi kunda aholining yoshlar qatlamiga oid islohotlarni to'la-to'kis amalga oshirib kelmoqda. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, yoshlarga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish kabi vazifalar bilan bir qatorda voyaga yetmaganlar huquqbazarligining oldini olish



masalasi ham dolzarb vazifalar qatoridan joy oldi. Huquqbazarliklarning oqibati bilan emas, balki uning kelib chiqishi sabablarini aniqlash profilaktika ishlarini olib borishning samaradorligini oshirishga asos bo‘ladi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Voyaga yetmaganlar huquqbazarligi profilaktikasi masalasi faqatgina bir tashkilot zimmasidagi vazifa bo‘lib qolmasdan, bu yo‘nalishda tizimli faoliyatni olib borish maqsadga muvofiq bo‘lishi haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev —Davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbazarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e‘tibor qaratmayapti, deb ta‘kidlagan.

Umumta‘lim mакtablarida huquqbazarlik profilaktikasi tadbirlari ikki shaklda amalga oshiriladi: umumiy (jamoaviy) profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika.

Umumiy (jamoaviy) profilaktika – bu o‘quvchilarning umumiy jamoasiga qaratilgan, huquqbazarliklarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, o‘quvchilarning huquqiy ongini o‘stirib, qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar majmuidir.

Umumiy profilaktika tadbirlari doirasida har payshanba umumta‘lim maktablarida profilaktika kuni o‘tkazilishi va bu kunda mакtab miqiyosida ommaviy tarbiyaviy profilaktik ishlarga o‘quvchilarning katta qismi jalb qilinishi belgilangan. Jumladan, O‘quvchilar davomati va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish davra suhbati, Internetning salbiy ko‘rinishlari-yoshlar tarbiyasiga ta‘siri tadbirlari, kelajakka sog‘lom fikr bilan so‘rovnomasijinoyatchilikning ildizlari suhbati, Yoshlar va qonun mavzusida yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish borasidagi tadbirlar, Jaholatga qarshi kurash mavzusida debat,bola tarbiyasiz tug‘iladimi? mavzusida suhbat,”Ta‘tilni jinoyatlarsiz o‘tkazamiz” shiori ostida tadbirlar majmui va boshqa ko‘plab tadbirlar shular qatoridandir. Ushbu tadbirlar mahalla faollari, profilaktika

inspektorlari, diniy tashkilot vakillari, yoshlar yetakchisi va boshqalar ishtirokida tashkil etiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Huquqbazarlik sodir etgan yoki xulqiy og'ishlari ijtimoiy havf ehtimolini yuzaga keltiradigan voyaga yetmaganlar umumta'lim maktablarining ichki nazoratiga olinishi belgilangan. Bunday o'quvchilar qatoriga ta'lim muassasalaridagi mashg'ulotlarga uzrli sabablersiz kelmayotgan va muntazam ravishda qatnashmayotgan o'quvchilar, ma'muriy huquqbazarlik sodir etganlar, notinch oila farzandlari, tarbiyasi og'ir bolalar, ta'lim muassasalariga o'tkir tig'li ta'qiqlangan buyumlarni olib kelgan yoki olib kirishga uringan o'quvchilar va ijtimoiy havfli hattiharakatlarni sodir etgan voyaga yetmaganlar kiradi. Umumta'lim maktablarida yakka tartibda ishlashda huquqbazarlik sodir etish ehtimoli bo'lgan yoki qayta sodir etish ehtimoli bo'lgan bola barcha profilaktik tadbirlarning markazida bo'ladi. O'quvchilar bilan yakka tartibda profilaktik tadbirlarni olib boruvchi mas'ul xodim sifatida sinf rahbari, yoshlar yetakchisi, maktab psixologi, tajribali o'qituvchilardan bir nafari

(zarur hollarda bir necha nafar) bo'lishi mumkin. O'quvchilar maktab ichki nazoratiga uch, olti, to'qqiz oy va bir yil muddatga olinadi, ushbu muddat o'quvchining xulqida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lgunga qadar uzaytirilishi mumkin.

Mas'ul xodimlar bolaning davomati, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilish, u bilan suhbatlar o'tkazish, bolaga turli sohada maslaxat va yordam berish, bolaning oilasi bilan muntazam aloqa qilish, bolani o'zi qiziqqan to'garakka biriktirish va boshqalarni amalga oshiradilar.

Huquqbazarlik profilaktikasi sohasida shaxslarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni oshirish, qonunlarga roiya qiladigan fuqarolarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda umumta'lim maktablarida fan sifatida o'tiladigan —Huquqshunoslik darslari o'z o'rni ega. O'quvchilarga huquqbazarlik, huquqiy javobgarlik, jazo,

jinoyat, huquqbazarlikning oldini olish, huquq va axloq normalari kabi tushunchalar aynan ushbu darslarda yoritilib, mavzuga oid muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bilan mustahkamlanadi.

Ijtimoiylashuv va shaxsni shakllantirishda ta'lim tizimidagi ijtimoiy ish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiatning barcha bolalarga to'laqonli ta'lim bera olish qobiliyati - bu jamiatning ijtimoiy sog'lomligining ko'rsatkichi va uning barqaror rivojlanishing zaruriy shartidir. Zamonaviy jamiatining o'zgaruvchan sharoitida faqat mustahkam ta'lim insonga o'z mavjudligini ta'minlashga va ijtimoiy, kundalik, kasbiy, mehnat va ijtimoiy funktsiyalarni bajarishga imkon beradi. Bugun to'laqonli (boshlang'ich, o'rta, kasb-hunar) ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'lgan kishi ertaga o'zini o'zi ta'minlay olmaydiganlar qatoriga qo'shilib, jamiatning boqimandasiga aylanishi mumkin.

Pedagogika, shu jumladan ijtimoiy pedagogika, umumta'lim maktablarida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarlik sabablari va manbalarini o'rganish hamda jinoyatchilikning kamayishini ta'minlaydigan bunday profilaktika dasturini yaratish uchun zarurdir. Deviant xatti-harakatlarning oldini olishni tashkil qilish jarayonida ijtimoiy pedagogning vazifasi voyaga yetmaganlar bilan munosabatlarda haqiqiy hamkorlik va sheriklik muhitini yaratishdir. Ularning ixtiyoriy ravishda yordam so'rash prinsipi va yordam taklif qilish prinsipi bir xil darajada amal qiladi. Bolada deviant xatti-harakatlarning oldini olish jarayonida ijtimoiy pedagog quyidagi vazifalarni amalga oshiradi: diagnostika; ma'lumot toplash va tahlil qilish; o'qitish; ma'lumot berish; ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilishda yordam berish; boshqarish. Ijtimoiy pedagoglar o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonlaridagi o'ziga xoslikni, individual xususiyatlarni o'rganib, xulqiy og'ishni boshidan o'tkazayotgan bolalarga amaliy yordam ko'rsatadi.



## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi bo'yicha umumta'lim maktablarida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi:

- Umumta'lim maktablarida psixologlarning malakasini muntazam oshirib borish va ular uchun ta'lim muassasasi hududida alohida xona ajratish.
- Maktab yoshlar yetakchilari shtatiga qo'shimcha ish o'rnini ajratish.
- Maktablardagi profilaktik ishlarga ijtimoiy ishchilarni jalg qilish. Bunda huquqbuzarlik sodir etish havfi ostidagi o'quvchi bilan birgalikda ularning oilasi bilan ishslash imkoniyati kengayadi.
- Umumta'lim maktablarida o'tiladigan huquq darslarida muammoli vaziyatlar-kazuslar ishslash amaliyotini kengaytirish. Bunda o'quvchilar nazariy bilimlar bilan birga amaliy tajribani uyg'unlashtirish imkoniga ega bo'lishadi.
- MMIBDO' bilan birgalikda maktab ichki nazoratiga olingan o'quvchilarning qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash hamda ularni to'garaklarga, seminarlarga jalg qilish amaliyotini takomillashtirish.O'quvchilarning genogramma va ekoxaritasini tuzishni yo'lga qo'yish. Bunda o'quvchilarning oila a'zolari va oila bilan aloqada bo'lgan tashkilotlar haqida yetarlicha ma'lumot olish imkoniyati yaratiladi.

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M. Mirziyoyev. 2017-yil 4-mart kuni qabul qilingan —Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2833- sonli Prezident qarori. <https://lex.uz/docs/3141186>
2. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi —Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida qonunning 8-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlari to'plami.-T.,2010,-

№39.

3. Костекова К.А.

«Роль социального педагога в профилактике правонарушений в подростковой среде». <https://infourok.ru/rol-socialnogo-pedagoga-v-profilaktike-pravonarusheniy-vpodrostkovoy-srede-3776595.html>

